

## FIRMA NOMIGA BO'LGAN HUQUQLARNI FUQAROLIK-HUQUQIY HIMOYA QILISH CHORALARI

Inomjonova Mashhura G'ayratjon qizi  
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tashkilotning firma nomini himoya qilishni kompleks umumiy nazariy o\_rganish, ushbu muammo bo\_yicha yuridik fan xulosalarini ko\_rib chiqish, firma nomiga bo'lgan mutlaq huquqlarni fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullari va ularning afzalliklari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** individual belgilar, tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy, sanoat mulki obyektlari, sanoat namunasi, farqlovchi funksiya, litsenziya shartnomasi, kompleks tadbirkorlik shartnomasi, franshizing.

### KIRISH

Fuqarolik huquqi subyektlarining tovarlari, ishlari va xizmatlarining xususiy elementlarini namoyon qiladigan vositalarga nisbatan mavjud bo\_igan huquqlar doirasiga ham mutlaq huquqlar to\_g\_risidagi norma va qoidalar qo\_llaniladi. Ta'kidlash joizki, fuqarolik muomalasi jarayonida nafaqat subyektlar, shu bilan bir qatorda mahsulot va xizmatlar ham birdek harakatlanadi. Xuddi shunday vaziyatlarda ushbu subyektlar o\_zlari ishlab chiqargan tovarlar va ko\_rsataytgan xizmatlarining individual farqlash belgilariga ega bo\_lishi zaruriy ahamiyat kasb etadi. Aks holda, bir qator anglashilmovchilik va qiyinchiliklar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin. Demak, bu turdag'i farqlash belgilari fuqarolik muomalasi subyektlarining o\_zlarini, ularning ishlab chiqargan tovarlari, bajaradigan ishlari va ko\_rsatadigan xizmatlarining xususiy alomatlarini (individual belgilarini) aks ettiruvchi vositalar bo\_lib hisoblanadi. [1] Ushbu turdag'i alohida farqlash belgilarining quyidagi turlarini ko\_rsatib o'tish mumkin:

- firma nomalari;
- tovar (xizmat ko\_rsatish) belgilari;
- tovar kelib chiqqan joy nomi.

### METODOLOGIYA

Mazkur maqolada firma nomiga bo\_igan huquqlarni himoya qilish usullari fuqarolik-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan bo\_lib, tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy va xususiy ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari mavzu yuzasidan tizimli tahlil o\_tkazish va maqbul takliflar ishlab chiqish uchun rasmiy-mantiqiy, tarixiy, tizimli, qiyosiy huquqiy, shuningdek huquqiy modellashtirish usullaridan samarali foydalanildi.

### NATIJALAR

Bizga ma'lumki, intellektual mulk bilan bog\_liq jarayonlar jadal suratlarda rivojlanib borayotgan bu paytda intellektual faoliyat natijalarining yangi turlari vujudga kelmoqda. Aytish joizki, ushbu faoliyat natijalari amaldagi qonunlarda aynan nazarda tutilmagan bo\_lsada, intellektual mulk haqidagi qoidalardan kelib chiqib, Fuqarolik kodeksining 1031- moddasi 3-qismida nazarda utilgan qoidalari tadbiq etiladi.

Firma nomi tadbirkorlik subyektining individuallashtirish vositalari, ya'ni tovar bozorida iste'molchilar uchun kurash jarayonida o\_z tovarining sifatini kafolatlashda, reklama sohasida o'zini tanitishda alohida qilib ko\_rsatish vositalari hisoblanadi. Sanoat mulki obyektlarining umumiyl томонлари сифатида уларга нисбатан mutlaq huquqlarning amal qilishi, patentlangan yoki ro\_yxatdan o\_tgan davlatda hududiylik asosida himoya qilinishi, vaqt bilan chegaralanganlikning barchasini umumlashtirib bularning barchasi yaxlit bir sanoat mulki institutini tashkil etadi. [2]

Qayd etish lozimki, mavjud intellektual mulk obyektlarining huquqiy qo'riqlanishi vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan huquqiy muhofaza hujjati asosida amalga oshirilishining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. huquqiy muhofaza hujjati obyektning sifat jihatdan mos talablarga javob bera olishi kerakligini;

2. o\_z nomiga huquqiy muhofaza hujjatini olgan subyektning mutlaq huquqlarini tasdiqlovchi va boshqa subyektlar tomonidan rioya etilishini tasdiqlaydigan fakt deyish mumkin.

Bunday tartibning afzalliklari haqida so\_z yuritadigan bo\_lsak, bunday tartibning amalda bo\_lishi huquqiy muhofaza va uning muddati masalasida nizo yuzaga kelishini oldini oladi. Bundan tashqari o\_zga mamlakat hududida aynan ushbu intellektual mulk obyektiga muhofaza hujjatini olish jarayonini osonlashtiradi. Intellektual mulk obyektning huquqiy muhofaza hujjati mavjudligi ushbu obyektning egasiga subyektiv huquqlari buzilganda o\_z huquqlarini sud tartibida himoya qilish uchun asos vazifasini o\_taydi. Intellektual mulk huquqidagi quyida keltirilgan obyektlariga nisbatan huquqiy muhofaza davlat organi tomonidan muhofaza yorlig\_i berilgach vujudga keladi:

- —Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to\_g\_risida||gi qonunning 5- moddasiga ko'ra ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunasiga nisbatan – patent ;

- Seleksiya yutuqlariga nisbatan – patent;
- tovar (xizmat ko\_rsatish) belgisi davlat ro\_yxatidan o\_tkazilib guvohnoma beriladi;
- firma nomi davlat ro\_yxatidan o\_tkazilgach bu to\_g\_risida – dalolatnoma;
- tovar kelib chiqqan joy nomiga bo\_lgan huquq davlat ro\_yxatidan o\_tkazilib, undan foydalanish huquqi to\_grisida guvohnoma beriladi.

Boshqa individuallashtirish vositalaridan farqli ravishda firma nomiga bo'lgan huquq uchun huquqiy muhofaza hujjatining amal qilishi muddat bilan belgilanmaydi.

O\_zbekiston qonunchiligiga ko\_ra firma nomlariga nisbatan mutlaq huquq yuridik shaxs vakolatli davlat organida ro\_yxatdan o'tkazilgandan keyin vujudga keladi. Xorijiy tajribaga nazar tashlashdigan bo'lsak, Fransiyada rasmiyatichilikka yo\_l qo\_yilmaydi, ya'ni mutlaq huquq shaxs firma nomidan birinchi bor oshkora tarzda foydalangandan so\_ng yuzaga keladi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda mualliflik huquqida bo\_lgani kabi firma nomiga nisbatan mutlaq huquq undan birinchi marta foydalanish fakti bilan belgilanadi. Masalan, AQSh, Yaponiya, Germaniya Federativ Respublikasi va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda shunday amaliyotga duch kelish mumkin. O\_zbekistonda jumladan bir qator MDH mamlakatlarida ham firma nomiga bo'lgan huquq yuridik shaxs davlat ro\_yxatidan o'tkazilgan paytdan vujudga kelishi belgilab berilgan. [3]

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda va mavjud ilmiy adabiyotdagi manbalardan firma nomining quyidagicha muhim funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tijorat bilan shug\_ullanuvchi boshqa yuridik shaxslarning firma nomlaridan boshqa yuridik shaxsning firma nomini ajralib turishi ya'ni farqlovchi funksiya;
- tijorat tashkiloti ishlab chiqaradigan tovarlar yoki xizmat ko'rsatishning sifatini kafolatlab berish uchun xizmat qiladigan sifatni anglatuvchi funksiya;
- firma nomiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan shaxsdan boshqa hech kimning shu firma nomidan foydalanishga haqli emasligi to\_g\_risidagi himoya funskiyasi. [4]

Nom yuridik shaxs uchun xuddi jismoniy shaxsning nomi singari shaxsiy (ma'naviy) huquq sanalib, tovar muomalasi predmeti bo\_la olmaydi. Firma nomi (nom commercial)dan firmaning o\_z mijozlari bilan bog'liq munosabatlarida foydalaniladi va ushbu nom bilan uni boshqa fuqarolik muomalasining boshqa subyektlaridan farqlashga xizmat qiladi. Shu sababli ham firma nomi intellektual mulk obyekti sifatida tijorat muoamalasi obyekti bo\_la oladi. [5]

Demak, yuridik shaxs tijorat bilan bog\_liq munosabatlар ishtirokchisi sifatida o\_z firma nomidan shtampda, muhrlarda, rasmiy blankalarda va boshqa o\_z faoliyati bilan bog\_liq jarayonlarda aks ettirish huquqiga ega. Bundan tashqari, o'z firma nomidan tovarlarda, tovarlarning idishi yoki ularning o'ramlarida, hisobvaraqlarda, turli bosma nashrlarda va reklamalarda va shu bilan bir qatorda O\_zbekiston hududida o'tkaziladigan yarmarka va ko\_rgazmalarda foydalanishi ham firma nomidan foydalanish sifatida baholanadi.

Qayd etish joizki, obyektning xususiy alomatlarni aks ettiradigan vositalar ya'ni firma nomi, tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomiga bo\_lgan huquqlar intellektual faoliyat natijalari hisoblangan obyektlarga nisbatan amal qiladigan huquqlar singari shaxsiy va mulkiy ko\_rinishdagi huquqlarga bo'linadi. Sababi, alohida farqlash belgilariga bo\_lgan huquqning egasi nafaqat shaxsiy balki mulkiy xarakterda ham bo\_ladi. Intellektual mulk obyektlarining mutlaq huquqlar egasi, o\_z huquqini qonunda man etilmagan doirada muhofaza qilishi mumkin. Huquqlarni tasarruf qilishning qonunchilikda man etilgan usuli Fuqarolik kodeksida yoki amaldagi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan. FKning 1101-moddasiga asosan Yuridik shaxsning firma nomiga bo\_lgan huquqni boshqa shaxsga berish va o\_tkazishga faqat yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki umuman korxona boshqa shaxsga berilgan hollardagina yo\_1 qo\_yiladi. Firma nomiga bo\_lgan huquq egasi boshqa shaxsga o\_zining bu nomidan foydalanishga ruxsat berishi mumkin va bunda litsenziya shartnomasi tuziladi. Ammo, ushbu holatda litsenziya shartnomasida iste'molchini chalg\_itib qo\_yishni istisno etuvchi choralar shart qilib qo\_yilishi lozim. [6]

## TAHLILLAR

Qayd etish joizki, firma nomi va boshqa intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar ham mazmun jihatdan ham, xarakteristik tomondan ham fuqarolik huquqiy munosabatlар jumlasiga kiradi. Buning natijasida Fuqarolik kodeksining tegishli moddasida belgilab qo'yilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari ushbu turdagи obyektlarga nisbatan ham tadbiq etiladi degan xulosaga kelish mumkin. Mutlaq huquqlarni himoya qilish usullariga atroficha to'xtalib o\_tish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi usul sifatida mutlaq huquq buzilishidan avvalgi holatni tiklash va mutlaq huquqni buzadigan yoki uning buzilishiga imkon tug\_diradigan holatlarni oldini olish

ko'rsatish mumkin. Ya'ni bunda huquq buzilishidan oldingi holat tiklanadi va mutlaq huquqning odatdagи tarzda amal qilishi uchun sharoit yaratib berilishi nazarda tutiladi. Ushbu holatda huquqbuzarga boshqa shaxsning mutlaq huquqini buzish harakatlarini to'xtatish, oqibatlarning bartaraf etilishi va huquqlarni buzish harakatlarini to\_xtatish majburiyati yuklatiladi.

Ikkinci usul bu – mutlaq huquqni tan olish bo\_lib, firma nomi egasining mutlaq huquqlari boshqa shaxslar tomonidan, sud, davlat organi va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan tan olinadi. Ammo ushbu holatda bir narsaga e'tibor qaratish o'rinnlidir. Ya'ni huquqni tan olish avval shunday huquqni buzgan subyekt tomonidan sodir etilsa, ushbu sodir etilgan huquqbazarlik huquqni tan olish shakli bilan mutanosib bo\_lishi kerak.

Uchinchi usul esa boshqa shaxslarning firma nomiga bo\_lgan mutlaq huquqlarini buzishga qaratilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash usuli fuqarolik qonunchiligining haqiqiy bo\_lmagan bitimlar toifasiga kiradi. Haqiqiy bo\_lmagan bitimlarning o'zi ham nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo\_lmagan bitim kabi turlarga bo'linadi. Mutlaq huquqlarni buzilishini o'zida aks ettirgan bitimlar, jumladan ushbu bitimning yozma shakliga rioya etmaslik va vakolatli davlat organida ro\_yxatdan o\_tkazish talablarining buzilishi o\_z-o\_zidan haqiqiy bo\_lmagan bitim deb topilishiga yetarlicha asos bo'lib xizmat qiladi. Yana bir holatda esa sud intellektual mulk obyekti egasining aldanishi natijasida yoki unga zo\_rlik va boshqa qo'rqtish choralarini qo\_llash yo\_li bilan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topilishiga erishishi mumkin. Bunda sudga da'veo talabi bilan intellektual mulk egasi yoki boshqa uchinchi shaxslar ham murojaat qilishi mumkin. Agar bitim haqiqiy emas deb topilgudek bo\_lsa, ikkala taraf ham olingan narsalarni va olingan foydani qaytarib berish bilan bir qatorda yetkazilgan zararni qoplash ishlarini amalga oshirishlari darkor.

To\_rtinchi usul esa amaliyotda nisbatan kam uchraydigan holat hisoblanib, fuqarolarning o\_zini-o\_zi boshqarish organining yoki davlat organi tomonidan chiqarilgan hujjatini haqiqiy emas deb topish ulusi bo\_lib, bunday holatda firma nomiga nisbatan mutlaq huquqlarni buzilishiga olib keluvchi va fuqarolarning o\_zini o\_zi boshqarish organi yoki davlat organi qabul qilgan hujjat sud tartibida yoki vakolat jihatdan yuqori turuvchi davlat organi tomonidan haqiqiy emas deb topiladi.

Sud davlat organi yoki fuqarolarning o\_zini o\_zi boshqarish organining hujjatini bekor qilish orqali mutlaq huquqlarni himoya qilish uchun bir nechta shartlar mavjud bo'lib ular quyidagilarda o'z aksini topadi:

- fuqarolarning o\_zini-o\_zi boshqarish organi yoki davlat organi tomonidan chiqarilgan hujjat chindan ham qonunga zid tarzda qabul qilingan bo'lishi lozim.

Navbatdagi beshinchi usul esa firma nomiga yoki boshqa intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo\_lgan shaxs hech qaysi davlat organi yoki sudga ham murojaat qilmasdan o\_z mutlaq huquqlarini o\_zi himoya qiladi. Fuqarolik kodeksining 13- moddasi ham aynan fuqarolik huquqlarini shaxsning o\_zi himoya qilishi deb nomlangan bo\_lib, bunda shaxsning fuqarolik huquqlarini o\_zi himoya qilish usuli huquqni buzilish darajasiga mutanosib bo'lishi bilan bir qatorda ushbu huquqni buzish harakatlarini oldini olish uchun zaruriy harakatlar doirasidan chetga chiqib ketmasligi ham yuqoridagi moddada

mustahkamlab qo\_yilgan. Shu o\_rinda mutlaq huquqlar egasi o\_z huquqlarini shaxsan o'zi qay tartibda himoya qila oladi degan savol tug\_ilishi tabiiy, albatta. Ta'kidlash joizki, ushbu himoya chorasi huquqbuzar uchun majburlov xarakterida bo\_lmasligi darkor. Aksincha, huquqbuzarga huquqbazarlik sodir etganligini va ushbu harakatlarni to'xtatishini, yuzaga kelgan oqibatlarni bartaraf etish yuzasidan tushuntirish va takliflar berish orqali va shu bilan bir qatorda ushbu harakatlar xususida boshqa shaxslarni ham xabardor qilishda o\_z aksini topadi.

Oltinchi usul. Mutlaq huquq egasiga huquqlari buzilishi orqali nafaqat moddiy zarar, balki, ma'naviy zarar ham yetkazilishi mumkin. Demak, firma nomi bilan bog'laydigan bo\_lsak, ma'naviy zarar mutlaq huquqlar egasiga firma nomidan boshqa shaxslarning noqonuniy foydalanishi, sifatsiz va qalbaki mahsulotlarda firma nomidan vijdonsizlarcha foydalanish natiasida iste'molchilarda yanglish tasavvur qoldirishida va korxonaning nufuzi tushishiga olib keladigan harakatlarni bajarish orqali yuzaga kelishi mumkin. Natijada, mutlaq huquqlar egasi huquqbuzardan o'ziga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplab berishini so'rashga haqli hisoblanadi.

Yettinchi usul bu tomonlar o\_rtasida tuzilgan shartnomaviy huquqiy munosabatni bekor qilish yoki unga o'zgartirish kiritish. Taraflar o\_rtasidagi huquqiy munosabat ular o\_rtasidagi subyektiv huquq va burchlarni bajarish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar majmui desak adashmagan bo'lamiz. Amaliyotda intellektual mulk obyekting egasi o\_z faoliyatini amalga oshirish davomida boshqa subyektlar bilan shartnomaviy huquqiy munosabatlarga kirishadi. Masalan, firma nomidan foydalanish huquqini berishda taraflar litsenziya shartnomasi yoki kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasini tuzish orqali shartnomaviy huquqiy munosabatga kirishadi. Ta'kidlash joizki, ushbu shartnomaviy huquqiy munosabatlar jarayonida aynan shu jarayon subyektlari tomonidan mutlaq huquq egasining huquqlari buzilgan bo\_lsak sud tartibida yoki mutlaq huquq egasi tuzilgan shartnomaviy huquqiy munosabatni bekor qilishga, shartnomaning huquqbazarlikka yo\_l qo\_ymaydigan ko'rinishda, taraflarga qulay bo'lган shartlarda o\_zgartirish mumkin.

Firma nomiga bo\_lgan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullaridan yana biri bu – mutlaq huquqlarni buzish uchun asos bo'lib xizmat qilgan moddiy obyektlarni, shu bilan bir qatorda huquqlarni buzish natijasida yaratilgan, ishlab chiqilgan moddiyliklarni huquqbuzardan olib qo'yishdir. Qayd etish kerakki, ushbu usul barcha intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish usuli hisoblanadi va intellektual mulk obyektlarining barcha turlarida qo'llaniladi. Olib qo'yish usuli sud qarori bilan yoki ma'muriy ta'sir chorasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Olib qo'yish natijasida qo\_lga kiritilgan moddiy obyektlar fuqarolik muomalasidan chiqarilishi bilan bir qatorda quyidagi harakatlarni amalga oshirish ham ta'qiqlanadi:

- hadya qilish;
- sotish va sotib olish;
- foydalanish va foydalanishga berish;

Eng muhim jihat shundaki, moddiy obyektlar nafaqat huquqbuzardan balki boshqa shaxslarning foydalanishidan ham olib qo'yilishi mumkin.

Shuningdek, firma nomiga bo‘lgan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullaridan yana biri sifatida qonun hujjatlarida insofsiz raqobatga qarshi chora ko‘rish ham ijobiy samara beradi deb hisoblaymiz.

Intellektual mulk obyektlariga bo\_ lgan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari sirasiga mutlaq huquq egasining huquqlarini buzgan shaxs tomonidan burchni aslicha ya‘ni natura shaklida bajarishga majbur qilish ham kiradi. Mana shunday hollarda huquqbuzar o\_zining majburiyatini natura ko\_rinishida bajarishi yoki intellektual mulk obyektining aslini qaytarib berishi kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatda intellektual mulk obyektining qiymatini pul shaklida to\_lashga, shuningdek, obyektning ko\_paytirilgan nuxxalarini taqdim etish holatlari qo\_llanmaydi.

Mutlaq huquqlarni himoya qilish munosabatlarida zararni qoplash va neustoyka undirish holatlari ko\_p uchrab turadi. Ushbu usullar burchni natura shaklida ijro etishga majburlash usullaridan shunisi bilan farq qiladiki, bunda huquq sohibi huquqbuzar tomonidan o\_zi sodir etgan huquqbuzarlik uchun pul ko\_rinishida tovon to\_lanishiga rozi bo\_ladi va shu bilan kifoyalanadi. [7] Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta‘minlash bo\_yicha aniq o\_ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi [8].

### XULOSA

Ta‘kidlash lozimki, intellektual mulk obyektlarini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimi orqali amalga oshiriladi. Agar shartnomalar shartlariga rioya qilinmasa, Fuqarolik kodeksida belgilab qo\_yilgan mualliflik shartnomasi, firma nomi bilan bog‘liq munosabatlar esa kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va litsenziya shartnomasi to\_g\_risidagi qoidalar asosida himoya usullaridan foydalaniladi.

Xorijiy mamlakatlarning qonunchilik amaliyotini tahlil qilish natijasida firma nomlariga bo\_ lgan mutlaq huquqlarni himoya qilish bo\_yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif. O\_zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish amaldagi qonunchilik bo‘yicha huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o\_n besh baravaridan o\_ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo\_ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma‘muriy jazo chorasi qo\_llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo\_lsa, — huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o\_ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo\_lishi belgilab qo\_yilgan. [9] Amaldagi qonunchilikning ushbu moddasiga jarimani oshirish bo\_yicha o\_zgartirishlar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Ikkinci taklif. Bizning fikrimizcha, firma nomiga bo\_ lgan huquqning buzilishi jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak, ya‘ni jinoyat kodeksiga tegishli jinoyat tarkibini kiritish kerak, chunki firma nomining buzilishi tadbirkorlarga sezilarli darajda ijtimoiy xavf tug\_diradi va bu fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazadi. Biz jinoyat kodeksiga firma nomiga bo\_ lgan huquqni buzganlik uchun javobgarlikni kiritish zarur deb hisoblaymiz. O\_zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish amaldagi qonunchilik bo\_yicha huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o\_n besh

baravaridan o\_ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo\_lishi ma'muriy javobgarlik to\_g\_risidagi kodeksda belgilab qo'yilgan

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo\_llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo\_lsa va firma nomiga bo\_lgan mutlaq huquq egasiga katta zarar yetkazgan bo\_lsa, javobgarlik turlari sifatida ushbu moddaga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan oltush baravarigacha jarima yoki 180 soatdan 240 soatgacha majburiy menhat yoki uch oydan olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo\_llanilishi kerak deb hisoblaymiz

Uchinchi taklif. Finlandiyaning —Firma nomlari tog\_risidalgi qonunining 23-moddasida javobgarlik va kompensatsiya masalalari yoritilgan bo\_lib, tadbirkorlik faoliyati natijasida qasddan yoki ehtiyyotsizlik bilan boshqa shaxsning firma nomiga bo\_lgan huquqi buzgan tadbirkor zarar ko\_rgan tomonga firma nomidan foydalanganlik uchun oqilona kompensatsiya to\_lashi va buzilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashi shartligi belgilangan.

Ijro mexanizmi: O\_zbekiston qonunchiligiga ham agar ehtiyyotsizlik ahamiyatsiz bo\_lsa, zararni qoplash to\_g\_risida tomonlar o\_zlari kelishib olishlari mumkinligi, madomiki, ushbu harakat qasddan sodir etilgan bo\_lsa huquqbuzar firma nomidan foydalanganlik uchun oqilona kompensatsiya to\_lashi shartligi to\_g\_risidagi qoidani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zararni qoplash to\_g\_risidagi da'vo faqat da'vo qo\_zg\_atilishidan oldingi so\_nggi besh yil ichida berilishi mumkin. Agar tegishli da'vo belgilangan muddat ichida qo\_zg\_atilmagan bo\_lsa, zararni qoplashni talab qilish huquqi yo\_qoladi.

## REFERENCES:

1. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I.M.Mo\_minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Toshkent, 2005 yil, 12-b
2. Rustambekov I, Nuridullayev A. Xorijiy mamlakatlar intellectual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – Т.: 2011. 48-b
3. Еременко В.И. Об интеллектуальной собственности в Гражданском кодексе РФ // Законодательство и экономика, 2002 г №5
4. Шукурбоев Н. К вопросу о понятии —Фирменное наименование‖, 2002 г, № 3
5. Safoyeva S.M. Intellektual mulk obyektlaridan tijorat muomalasida foydalanishning huquqiy shakllari. O'quv qo'llanma\ T.: 2009 43-b
6. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi 1101-moddasi
7. Гражданское право. Т.1. – М.: Проспект. 1996.276-б.
8. Абдумумин Юлдашов, Мурод Чориев Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт // ОИИ. 2020. №1/S.
9. O\_zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to\_g\_risidagi kodeksi, 01.04.1995. <https://lex.uz/docs/-97664>
10. <https://www.finlex.fi/fi/laki/ajantasa/1979/19790128>
11. Юлдашов А. А. Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт